

XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA "SAYOHATNOMA" JANRIDA  
YARATILGAN ASARLAR XUSUSIDA

Safarova Hilola Oxunjonovna

*Bux DU ff.n., dotsent*

**Аннотация:** *Maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida "Sayohatnoma" janrida yozilgan asarlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda ularda mualliflarning davr voqealariga bo'lgan munosabatlari to'g'risida mulohaza yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Muhammad Aminxo'ja Muqimiy, Nodim, Zavqiy, Muhsiniy, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Oybek, "Hajnoma", "Sayohatnoma", "Sayohat xotiralari", "Afg'on sayohati", "Pokiston taassurotlari".*

**Аннотация:** *В статье рассматриваются произведения, написанные в жанре «Путешествие» в конце XIX – начале XX века, их характеристика, а также отношение авторов к событиям того времени.*

**Ключевые слова:** *Мухаммад Аминходжа Мукуми, Надим, Завки, Мухсини, Бехбуди, Абдулла Авлони, Ойбек, «Хажнама», «Путешествие», «Воспоминания о путешествии», «Афганское путешествие», «Пакистанские впечатления».*

**Abstract:** *The article discusses the works written in the "Travel" genre at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, their characteristics, and the relationship of the authors to the events of the time.*

**Keywords:** *Muhammad Aminkhoja Muqimi, Nadim, Zavqi, Muhsini, Behbudi, Abdulla Avloni, Oibek, "Hajnoma", "Travelogue", "Travel memories", "Afghan trip", "Pakistan impressions".*

"Sayohatnoma" janridagi asar — sayohat taassurotlari va tavsilotlari tasviriga bag'ishlangan asardir. Sayohatnomalarning tarixiy-badiiy qimmati muallif maqsadi, uslubi va mahoratiga bog'liq bo'ladi.

"Jahongashta sayyoh-olimlar" risolasida mualliflari Karomiddin Gadoev va Sabohat Berdievalar: "Inson dunyoga kelishi bilanoq sayohat qilishga oshiqadi va butun umri davomida shunga intilib yashaydi. Agar endigina atak-chechak qilib yura boshlagan go'dakka nazar solsak, u doimo uydan tashqariga chiqishga intiladi. Chunki dunyoqarashi hali shakllanib ulgurmagan bola nazdida uydan ko'chaga chiqish ham bir sayohat-da!" - degan fikrlarni keltiradilar. Haqiqatdan ham, inson kamolga yetgan sayin sayohat qilishga bo'lgan intilish ham kuchayib boradi. Eng ajoyibi, sayohat davomida olingan taassurotlar kishining xotirasida umrbod qoladi. Ba'zilar bu taassurotlarini oilasi va do'stlari bilan o'rtoqlashishni istasa, ba'zilar esa ko'rgan kechirganlarini qog'ozga tushirib, keng omma bilan baham ko'radi. Mana shunday safarlar natijasida "Sayohatnoma" janridagi asarlar yaratila boshlangan.

O'zbek mumtoz adabiyotida sayohatnoma keng tarqalgan liro-epik janrlardan biri hisoblanadi. Sayohatnoma sayohatdan olingan taassurotlar va tafsilotlar tasviriga

bag'ishlanadi. Asosan sayohatnomalarning tarixiy-badiiy qimmati muallif maqsadi, uslubi va mahoratiga bog'liq bo'ladi. Adabiyot tarixida sayohat taassurotlari asosida yozilgan "Sayohatnoma"lar ikki usulga ajratiladi:

1. She'riy "Sayohatnoma"lar.
2. Nasriy "Sayohatnoma"lar.

She'riy "Sayohatnoma"larda tasvir ixcham va umumlashma tarzda bayon etiladi. O'zbek adabiyoti tarixi uchun, ko'proq she'riy "Sayohatnoma"lar xarakterlidir. Muqimiyning murabba' shaklida yozilgan «Sayohatnoma»si nazmda yozilgan. Nodimning Samarqand va Toshkentga qilgan safari asosida yuzaga kelgan "Sayohatnomasi" esa qasida shaklida yozilgan.

Muqimiy milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida "Sayohatnoma" janrini boshlab bergan ijodkorlardandir. Uning "Sayohatnoma"sida davr ziddiyatlari, chor hukumatining xalq boshiga solgan kulfatlari, zolim va adolatsiz hokim guruhlar tanqid qilinadi. O'z ko'zi bilan ko'rgan xarob va vayron qishloqlarni tasvirlab beradi. Shoir "Sayohatnoma"si o'z vaqtida mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. Muqimiydan keyin Zavqiy va Muhsiniylarning "Sayohatnoma"lari muqaddas safar taassurotlarining ijodkor qalbida qoldirgan izi, dunyoqarashi va ichki dunyosi o'zgarishlarining badiiy in'ikosi sifatida nazm maydoniga kirib keldi. Zavqiy va Muhsiniylarning sayohatnomalari haj safari ta'sirida yozilgan. Ubaydulloh Zavqiy 1898 yilda 6 oy davomida Muqaddas Ka'ba ziyoratida bo'ladi va sayohat ta'sirida 11 baytdan iborat g'azal yozadi. G'azalda shoir turkistonlik hojilarga murojaat qilib, har xil irq vakillaridan iborat bo'lgan ziyoratchilarining tashqi ko'rinishiga (oqu qoraligiga) emas, ularning inson ekanligi, qutlug' niyat, ulug' ibodat uchun kelganligiga e'tiborni qaratadi. Muhsiniy ham Zavqiy kabi haj safarida bo'lgan va taassurotlar natijasida "Ma'zaratnomai Muhsiniy ba axuyi arjumandiyi xud" ("Muhsiniyning o'z akasiga uzrnomasi") safarnoma-masnaviysini yozadi. Masnaviy 51 baytdan iborat. Asarda yo'l xatarlari, azob-uqubatlar, Muqaddas dargohdagi duolar qabul bo'ladigan 16 makon, vatan va ota-ona sog'inchi iztiroblari o'z ifodasini topgan. Bu asarlar orqali shoirlarning hayot yo'li, tarjimai holi, ularning ahvoli ruhiyasi va dunyoqarashi haqida bilib olish mumkin.

Nasriy "Sayohatnoma"larda joy va voqealarning keng tafsiloti yetakchi o'rinni egallaydi. Bunga misol, Nosir Xucpavning «Safarnoma» asari. Nosir Xucpav «Safarnoma» asarini nasrda yaratgan bo'lib, unda 7 yillik sayohat taassurotlari bayon qilingan.

Jadid adabiyotining rivojlanish jarayonida "Sayohatnoma" janrida ijod qilish an'anaga aylandi. Piter Tomzening "Falastin adabiyoti" (Leyptsix, 1916) kitobida aytilishicha, 1910-1914 yillar orasida yuzdan ortiq "Sayohatnoma"lar bitilgan. Rusiyadan kelgan yahudiylar va musulmonlar yozgan bu asarlar Qozon, Saratov va Odessada chop etilgan. Bu davr ijodkorlari nasihatimiz "Hajnoma"lar bitgan mualliflarning an'analaridan ancha chetga chiqqanlar. Masalan, o'zbek jadid adabiyotining yirik namoyandasi, Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining sayohatlari asosida "Sayohat xotiralari" nomli asarini nasrda yozadi. Unda 1914 yil 29 may safarga chiqqanligi va ikki oy davomidan o'ndan ortiq shaharlarda bo'lganligi bayon etilgan. Behbudiy asarda jug'rofiy tasvirlar orqali savdo va diplomatik munosabatlar, Falastin bilan savdo-sotiq va sayohat

sohasida hamkorlik olib borish lozimligi haqidagi ma'lumotlarni berib o'tadi. Nemis olimasi Ingeborg Baldauf "Mahmudxo'ja Behbudiy Falastinda" maqolasida Behbudiyning "Sayohat xotiralari" asariga: "Mahmudxo'janing asari ...yarim sarguzasht, yarim hisobot tarzida yozilgan ta'limiy-tarbiyaviy xususiyatga ega", deb baho berib o'tgan.

Jadid adabiyoti namoyandalaridan bo'lgan Abdulla Avloniy 1919 yilning iyunida RSFSR hukumatining topshirig'i bilan Afg'onistonga boradi. 1919 yilning 28 sentyabridan 1920 yilning 20 iyuligacha Hirotda bosh konsul vazifasida faoliyat olib boradi. 1919-1920 – yillardagi Afg'onistondagi faoliyati va safariga doir "Afg'on sayohati" asarini yozadi. Asardan shuni bilish mumkinki, Afg'on safari Avloniydagi ruslarga bo'lgan munosabatini o'zgartirib yuboradi. O'zlarini haqiqatchi deb bilgan rus bolsheviklarining sobiq chor generallaridan umuman qolishmasligiga guvoh bo'ladi. "Afg'on sayohati" asarida: "Oh, na insoniyat, na barobarlik, na sotsialistik, na millat tafriqa qilmaydurg'on internadionalistlar dunyo yuzinda topilarmukin? —Balki bordur, topilur, lekin vujudi anqoning tuxumidek kamyob ekanlig'in Afg'oniston safariga chiqg'onda aniq bildim. Afg'onistong'a chiqg'on besh hay'ati vakolaning ichida birgina musulmon man o'ldig'imdan har bir og'ir mehnatlar, har bir kulfat va aziyatlar meni ustimg'a yuklandi...". Asarda berilgan ma'lumotlar orqali Abdulla Avloniyning ruslarga bo'lgan munosabatining o'zgarganligi va o'sha davrdagi xalqlarning og'ir hayoti haqida bilib olish mumkin.

Keyinchalik adib va publitsistlarning turli mamlakatlarga qilgan safarlari natijasida ham bir qator nasriy Sayohatnomalar yuzaga keldi. Ular uslubida ocherk va publitsistika uchun xarakterli xususiyatlar ko'ga ko'rinadi. Masalan, Oybekning "Pokiston taassurotlari" asarida Sayohatnoma mavzuining kengayganligini ko'rishimiz mumkin. Bayon va tasvir shakllarining o'ziga xos tarzda tasvirlanganligi ko'zga tashlanadi

Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, safarnomalar shunchaki yo'l xotiralari va hayratlarini ifoda etuvchi oddiy kundaliklar emas. Ularni tarix va kelajakni bog'lovchi jonli va haroratli voqealarning guvohi bo'lgan asarlar deya ayta olamiz. Shu bilan birgalikda sayohatnomalarning ilmiy, tarixiy, badiiy hamda ma'rifiy ahamiyati ham yuksak ekanligini ta'kidlash o'rinlidir. Chunki, har bir safar bu yangi olamga yangicha nigoh tashlash, tasavvur dunyosini boyitish, sir-sinoatlar-u jumboqlarga yechim topish imkonini beradi. Sayohatnoma janri takomilida har bir safar bitigining o'z o'rni va ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Shuning uchun bu asarlarni bir qancha yo'nalishlarda o'rganish va tadqiq etish kelajakdagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Safarova Hilola Oxunjonovna, "THE CROW, THE OWL, THE RAVEN, THE SLICE, WHICH TURNED YOUR FLOWERS. (one of the example create of Samandar Vohidov)", IEJRD -International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. TITFL, pp. 211–216, Apr. 2021.

2. H.Safarova "HAPPINESS IS THE FLAG LANGUAGE, FROM NARRINESS I AM ALSO A TONGUE!"... ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF POETSAMANDAR VOHIDOV//Konferensii –2020.

3. Safarova Hilola Okhunjonovna, Rajabova Marifat Bakoevna, Amonova Zilola Kadirovna. Travelogues in The Literature of Bukhara at The End of The 19th and The Beginning of The 20th Century. *Res Militaris. Social Science Journal/Res Militaris*, vol.13, n°1, Winter-Spring 2023.258-264.
4. Maxmudova R. PISATEL, POSPEVIŖIY BOL NARODA. Til, adabiyot, tarjima, adabiy tanqidchilik xalqaro ilmiy forumi: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollar. // Konferensiya –2021.
5. Makhmudova Robiyabonu Furkatovna. International Scientific Forum on language, literature, translation, literary criticism: international scientific-practical conference on modern approaches and perspectives. Web:<https://iejrd.com/196-200>.
6. Робиябону Махмудова. ОБРАЗ МАТЕРИ В ТВОРЧЕСТВЕ УТКИРА ХАШИМОВА, BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579 Volume:3 Issue:4 | 2024,132-134.
7. Latipov H. R. ALISHER NAVOI ON LOVE, ENLIGHTENMENT AND AWARENESS //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 6. – С. 551-556.
8. Ramazonovich L. H. Souls striving to god or from the world of wise people //Journal of Social Sciences and Humanities Research. – 2018. – Т. 6. – №. 04. – С. 14-18.
9. Ramazonovich L. H. Symbolism, Allusion and Essence in the Work of Turkigoi Songs //International Journal of Formal Education. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 20-28.
10. Baxtiyorovna, N. N. ., & Latipov, H. R. . (2024). Expression of Common Ideas and Images in the Creations of Navoy and Pushkin. *International Journal of Formal Education*, 3(4), 46–53. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2479>
11. Ramazonovich, L. H. . (2024). Symbolism, Allusion and Essence in the Work of Turkigoi Songs. *International Journal of Formal Education*, 3(4), 20–28. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2474>
12. Davronova S. THE ORIGINALITY OF THE ARTISTIC IMAGE AND THE TRUTH OF LIFE IN THE NOVELS OF ULUGBEK KHAMDAM //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – Т. 2. – №. 06. – С. 49-53.
13. Давронова Ш. Г. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ АНЪАНАЛАРИ ВА ИСТИҚЛОЛ ДАВРИ ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-2.
14. G'aybulloevna D. S. The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of “The Missing Motherland”) //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.
15. Давронова Ш. ҚИССАДА БАДИИЙ ДАЛИЛЛАШНИНГ ЎРНИ: Шоҳсанам Давронова БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, ф. ф. доктори //Научно-практическая конференция. – 2021.
16. Shokhsanam Davronova 2021. UZBEK NOVEL IN THE INDEPENDENCE PERIOD: TRADITION AND NOVELTY ISSUES. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. (Feb. 2021), 679–683.



17. Davronova S. Eastern and western literary tradition in the modern uzbek novels //World science. – 2016. – Т. 4. – №. 5 (9). – С. 33-34.
18. Davronova S. MODERN ÖZBEK ROMANLARINDA KÂMİL İNSAN TERBİYESİ MESELESİNİN ELE ALINIŞI //Electronic Turkish Studies. – 2017. – Т. 12. – №. 15.
19. DAVRONOVA S. TARİHİ ROMANDA MUTASAVVIF BİLGİN SİMASI //DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI I. – С. 108.
20. Shohsanam D. EASTERN AND WESTERN LITERARY TRADITION IN THE MODERN UZBEK NOVELS //International Scientific and Practical Conference World science. – ROST, 2016. – Т. 4. – №. 5. – С. 33-34.
21. Давронова Ш. Литературное влияние и творчество //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2016. – Т. 1. – №. 2 (59). – С. 40-46.
22. Давронова Ш. Адабий таъсир ва ижодийлик //Иностранная филология: язык, литература, образование.–2016. – 2016.
23. Davronova S. Контрастическое описание метода в литературе (на примере рассказа Исаджана Султана "Олисдаги урушнинг акс-садоси") («Эхо войны вдалеке») //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.
24. Davronova S. Mythology in intellectual novels //Theoretical & Applied Science. – 2015. – №. 4. – С. 40-43.
25. Gaybulloevna D. S., Bakhtiyorovna N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL" FATHER.
26. Davronova S., Kandimova I. CHARACTER CREATION SKILLS OF LUKMON BORIKHAN //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 30-34.
27. Ahmadovich H. S., Muminovna M. M. About Nisoriy Bobur And Humoyun //NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO. – 2021. – С. 4753-4767.
28. Muhammadova M. HUMOYUN MIRZO NISORIY TALQINIDA: Mahbuba Muhammadova Termiz davlat universitetining mustaqil izlanuvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
29. Mahbuba, Muhammadova. "Nisoriyning" Muzakkiri ahbob" tazkirasida ayrim janr va badiiy san'atlar xususiyati." *Karabük*-2020.
30. Mo'minovna M. M. SECTION: HISTORY SCIENCE //POLISH SCIENCE JOURNAL. – 2019. – С. 29.
31. Mo'minovna M. M. NISORIY DO 'ST MUHAMMAD SULTON VA UNING IJODKOR SIFATIDAGI QIRRALARI HAQIDA //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – Т. 3. – №. 29. – С. 348-350.
32. Makhbuba M. Muzakkiri Ahbob" Fable By Nisari And Its Role In Literature Studies //European Journal of Business and Social Sciences. – 2019. – Т. 7. – №. 10. – С. 111-116.

33. Sanobar A., Mahbuba M. O'LMAS UMARBEKOVNING"ODAM BO'LIH QIYIN"ASARINING BADIY TAHLILI //ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 74-80.
34. Mo'minovna M. M., VA N. D. O. S. T. M. S., HAQIDA U. I. S. Q. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM.–2023 //T. – T. 3. – C. 348-350.
35. Muxammadova M. The Image of Navoi in the " Muzakkiri Ahbob" Tazgire //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – T. 3. – №. 4. – C. 137-143.
36. Sh, Hayitov. "Depiction of king and great leaders in classic literature." *International Journal on Integrated Education* (2020): 161-164.
37. Hayitov, Shavkat Ahmadovich. "DREAM OF A PERFECT RULER." *Theoretical & Applied Science* 1 (2020): 459-463.
38. Sh, Hayitov. "The genre of manokib and the problem of a perfekt human being." *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*. ISSN: 1475-7192.
39. Hayitov, Shavkat Akhmadovich. "The altitude of maturity." *Scientific reports of Bukhara State University* 3.1 (2020): 167-172.
40. Ahmadovich H. S., Muminovna M. M. About Nisoriy Bobur And Humoyun //NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO. – 2021. – C. 4753-4767.
41. Ahmadovich S. H. CRITERION OF JUSTICE //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 1. – C. 193-204.
42. Ахмадович, Хайитов Шавкат. "Алишер Навоий тиб илми ва табиблар ҳақида." *Conferences*. 2021.
43. Ahmadovich H. S., Muminovna M. M. History of a Ghazal of the Mawlana Jami's Literature //Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 102-106.
44. Hayitov S. A. THE IMAGE OF A PERFECT ARTIST (HAFIZ) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 3. – C. 322-326.
45. Ahmadovich, Shavkat Hayitov. "CRITERION OF JUSTICE." *Scientific reports of Bukhara State University* 4.1 (2020): 193-204.
46. HAYITOV, Shavkat. "BADIY NASRDA QURO'NI KARIM OYATLARINING O'RNI." *Alisher Navo'i and 21 st century* 1.1 (2024).
47. Ahmadovich, Hayitov Shavkat, and Maftuna Bafoeva. "ATTITUDE OF HISTORICAL AND LITERARY CHARACTERS OF ALISHER NAVOI TO ART." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 *Impact factor: 7.429* 13.01 (2024): 69-74.
48. Hayitov, Shavkat. "Alisher Navoi's attitude to" green space"." *E3S Web of Conferences*. Vol. 431. EDP Sciences, 2023.
49. Raximovna U. N. TASAVVUF TA'LIMOTI VA G 'ARB ADABIYOTI //Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. – 2023. – C. 117-119.

50. Umurova N. "IQRORNOMA" VA ISLOM FALSAFASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 41. – №. 41.
51. Umurova N. INTERPRETATION OF HIS IDEAS IN THE WORK OF AHMAD YASSAVIY //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C10. – С. 45-49
52. Raximovna, Umurova Nigina. "Beshinchi tog " asarida Sharq falsafasi." Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. 2023.
53. Umurova N., Samadova S. Oriental Motives on "The Fifth Mountain" By Paulo Coelho //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – №. 2.
54. Turaeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 629-634.
55. Тўраева, Л. О. (2024). ЎЗБЕК ДЕҲҚОНЧИЛИГИДА ТАҚВИМ РАМЗЛАРИ. *IMRAS*, 7(1), 779-783.
56. Тўраева, Л. О. (2023). ЎЗБЕК ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИДА ДЕҲҚОН ОЛҚИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИФОДАСИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(24), 22-25.
57. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕҲҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРНИНГ ЎРНИ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(22), 66-70.
58. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕҲҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРНИНГ ЎРНИ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(22), 66-70.
59. Тўраева, Л. О. (2022, June). Мақолларда дехқонлар ҳаётининг бадий талқини. In *E Conference Zone* (pp. 71-73).
60. To'rayeva, L. (2021). ЎЗБЕК ЗИРОАТШИЛИГИДА МОШГА МУНОСАБАТНИНГ ФОЛЬКЛОРДАГИ БАДИИЙ ТАЛҚИНЛАРИ ХУСУСИДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 7(7).
61. Omonovna T. L. Artistic understanding of peasant life in proverbs //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 9. – S. 47-49.
62. Saidahmedovna, Uraeva Darmon, and RustamovaGavharBahronQizi. "Beliefs About the" Tree of Life" in Uzbek Folklore." *MiddleEuropeanScientificBulletin* 8 (2021).
63. Darmon U., Rano R., Dilshod R. The Stylization of Prose Tales in Uzbek Children's Literature //Religación. – Т. 4. – S. 170-174.
64. Saidakhmedovna, U. D., & Abdumalikovna, T. D. (2023). Ceremonial Dishes in Uzbek Language. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 15, 35-38.